

**6-7-SINF O‘ZBEK TILI DARSLIKLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLARNING QO‘LLANILISHI**

**Jumamuratova Sevara Saparbaevna,**  
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat  
pedagogika instituti,  
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va  
metodikasi  
o‘zbek tili ixtisosligi 2-kurs doktoranti  
+99893-164-22-00  
[sjumamuratova@list.ru](mailto:sjumamuratova@list.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 6-7-sinf o‘zbek tili darsligi yuzasidan lingvomadaniy birliklarning qo‘llanilishi bo‘yicha statistik tahlil olib borilgan. Maqol va matallarning qo‘llanilish o‘rni atroflicha yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** lingvomadaniy birlik, mashq va topshiriqlar, maqol, matal, maktab darsligi, o‘quvchilar.

**Abstract.** In this article, a statistical analysis of the use of linguistic and cultural units was carried out in connection with the 6th-7th grade Uzbek language textbook. The use of proverbs and sayings is explained in detail.

**Keywords:** Linguistic and cultural unit, exercises and assignments, proverb, school textbook, students.

O‘zbek tilshunosligida lingvomadaniy birliklarni o‘rganish hozirgi vaqtda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, lingvomadaniy birliklarning maktab darsliklarida qay holatda kiritilganligi va o‘quv jarayonida o‘quvchilarning bu birliklarni qay tarzda o‘rganayotgani muhim masala hisoblanadi. Chunki, lingvist N.D.Arutyunovanning qayd qilishicha, lingvokulturologiyaning vazifasi til birliklarining shu til bilan bog‘liq madaniyat “kodlari”ga munosabati asosida tushuniladigan madaniy qiymatni ochish va talqin qilishdir[1,341]. Shuning uchun 6-7-sinf o‘zbek tili darsligilari yuzasidan lingvomadaniy birliklar ya’ni maqol va matallarning qo‘llanilish o‘rni bo‘yicha statistik tahlil qildik.

**6-sinf o‘zbek tili darsligi yuzasidan statistik tahlil**

Maqol va matallarning matnlarda berilishi	Maqol va matallarning mashqlarda va terma gaplarda berilishi	Maqol va matallarning mashq talabida berilishi
	Katta-katta ko‘zmunchoq – Ko‘ylagimga ko‘rk-munchoq. (46-bet)	1. O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, O‘z yurtiingda gado bo‘l.

**“RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami**

			<p>2. Ona yurtning, oltin beshiging.</p> <p>3. Ona yurtning omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas.</p> <p>4. Bulbul chamanni sevar, Odam – vatanni.</p> <p>5. Vatan qadrini bilmagan, O‘z qadrini bilmas.</p> <p>(16-bet. So‘zlarning o‘rni almashtirib berilgan. O‘quvchi so‘zlarni joy-joyiga qo‘yishi kerak)</p>
		<p>1. Yer – xazina, suv- gavhar.</p> <p>2. Yerni buzadigan ham suv, tuzadigan ham suv.</p> <p>3. Suvni bersang elga, yasharsan ming yilga.</p> <p>4. Baliq suv bilan tirik, odam – el bilan. (93-bet. Yodlash uchun berilgan)</p>	<p>1. Zar qadrini zargar bilar.</p> <p>2. Yangi uy qurmay turib, eskisini buzma.</p> <p>3. Bir yigitga qirq hunar oz</p> <p>4. Usta ko‘rmagan shogirt, har maqomga yo‘rg‘alar.</p> <p>(54-bet. So‘zlarning o‘rni almashtirib berilgan. O‘quvchi so‘zlarni joy-joyiga</p>

# “RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

			qo‘yishi kerak)
		“Kitob – eng yaqin do‘st, dono maslahatchi” (143-bet)	1. Baliq suv bilan tirik, odam el bilan tirik. 2. Suvning tomchisi ham suv. (135-bet. Takrorlash darsida gaplarning so‘zlari tushib qolgan. Gaplar ichida 2 ta maqol berilgan)
		Boshingga qilich kelsa ham, rost gapir. (156-bet)	
		1. Mehnat qilsang, hurmat ko‘rasan. 2. Olim bo‘lsang, olam seniki. 3. Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan. (162-bet)	

### 7-sinf o‘zbek tili darsligi yuzasidan statistik tahlil

Maqol va matallarning matnlarda berilishi	Maqol va matallarning mashqlarda va terma gaplarda berilishi	Maqol va matallarning mashq talabida berilishi
Libos – inson ziynati. (40-bet)	1. O‘z ishining ustasi bo‘lgan hunarmandlar elda doimo aziz. 2. Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqshdir. (36-bet. Mashq sharti tushib qolgan qo‘shimchalarni to‘g‘ri yozish.)	1. Yer – xazina, suv – gavhar. 2. Toshsiz tog‘ bo‘lmas, Ko‘chatsiz bog‘ bo‘lmas. 3. To‘qsonga yetsang, tok ek, yuzga yetsang bog‘ ek. 4. Qarovsiz bog‘ bo‘lmas, toshsiz tog‘

**“RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami**

			bo‘lmas. (21-bet. Maqollarni to‘liqtirish sharti berilgan)
<p>1. Gilam sotsang, qo‘shningga sot, chunki bir chetida o‘zing o‘tirasan.</p> <p>2. Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo‘shning afzal. (89-bet. “Qo‘shnichilik odoblari” matnida berilgan.)</p>	<p>Kasallikni davolagandan uning oldini olgan ma’qul (59-bet)</p>	<p>1. Asalning ham ozi shirin.</p> <p>2. Ari zahrini chekmagan bol qadrini bilmas.</p> <p>3. Bol sotgan barmog‘in yalar.</p> <p>4. Yesang asal, bo‘lmasan kasal.</p> <p>5. Ari chaqdi deb arzalama, boli bor. (25-bet. Mashq shartida ustunlar berilgan. Maqollarni bir-biri bilan bog‘lash kerak)</p>	
<p>Hashar – elga yarashar. (93-bet.)</p>	<p>“Har kimga aziz tug‘ilgan joyi, Tog‘lari, bog‘i, tuprog‘i, loyi”.</p> <p>Insonga yana nimlar aziz bo‘lishi mumkin? (84-bet. Maqol savol va topshiriqlarda berilgan)</p>	<p>1. Hunar bo‘lsa qo‘lingda, Non topilar yo‘lingda.</p> <p>2. Tikkan chevar emas,</p> <p>Bichgan – chevar.</p> <p>3. Ustozsiz shogird, Jonsiz kesak.</p> <p>4. Uchqundan qo‘rqan temirchi bo‘lmas.</p> <p>5. Qo‘yni qassob so‘ysin,</p> <p>Oshni oshpaz pishirsin. (42-bet. Mashqning sharti tushib qolgan so‘zlar toppish kerak.)</p>	

		<p>“Hashar – elga yarashar” maqolini qanday tushunasiz? (93-bet)</p>	<p>1. Ilmsizga ishonch yo‘q, Hunarsizga quvonch yo‘q.                  2. Bekorchidan bemaza gap chiqar. (Darslikda bu maqolning chiqar so‘zi yozilmagan)                  3. Mehnatsiz topilganmol hisobsiz ketar.                  4. Hunarli xor bo‘lmas, Do‘st-dushmanga zor bo‘lmas.                  5. Hunarli o‘lmas, Hunarsiz kun ko‘rmas. (54-bet. Mashq sharti qavs ichida ikkita qo‘shimcha berilgan ulardan mosini topish)</p>
			<p>1. Mehmon izzatda, mezbon xizmatda.                  2. Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan.                  3. Mehmonxonang tor bo‘lsa ham, mehri-diling keng bo‘lsin.                  4. Shirin oshing bo‘lmasa, shirin so‘zing bo‘lsin.                  5. Mehmon kelgan uyning chirog‘i ravshan. (87-bet. Mashq shartida ustunlar berilgan. Maqollarni bir-biri bilan</p>

# “RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

			bog‘lash kerak) 1.Hovli olma, qo‘shni ol. 2.Qo‘shning tinch – sen tinch. 3.Qo‘shning yomon bo‘lsa, yomonlik keltirar; qo‘shning yaxshi bo‘lsa, yaxshilik keltirar. 4.Mahallang – ota- onang. 5. Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo‘shni yaxshi. (95-bet. Mashq shartida ustunlar berilgan. Maqollarni bir- biri bilan bog‘lash kerak)
			1.Tilga ixtiyorsiz – elga e‘tiborsiz. 2.Odam qancha ko‘p tilni bilsa, shuncha imkonga ega. 3.Til bilgan ko‘pni bilar. 4. Tilni ko‘p bilgan ko‘pni bilar. 5. Til bilgan yo‘lda qolmas. (121-bet. Mashq shartida ustunlar berilgan. Maqollarni bir- biri bilan bog‘lash kerak)

Tahlil jarayonida shuning guvohi bo‘ldikki, darsliklardagi mavzular ham maqol va matallar bilan berilgan. Jumladan, 6-sinf o‘zbek tili darsligida “Yaxshilikni o‘z vaqtida qil”(165-betdagi mavzu), 7-sinf o‘zbek tili darsligida “Maqsad bu - harakat” (11-bet), “O‘n qo‘ling – o‘n hunar”(35-bet), “Libos – inson ko‘rki” (39-bet), “Yon

qo‘shni-jon qo‘shni” (88-bet), “Hashar elga yarashar” (92-bet), “Suv – mo‘jiza”(149-bet) kabi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, statistik tahlil jarayonida maqol va matallarning darsliklarda qo‘llanilish o‘rni kamligining guvohi bo‘ldik. 6-sinf o‘zbek tili darsligida 21 ta maqol va matal, 7-sinf o‘zbek tili darsligida 43 ta maqol va matal qo‘llanilgan. Maqollarning mashqlarda berilishi deyarli bir xil. Har bir mavzuga mos kamida 3 ta maqol qo‘llansa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Chunki, maqol va matallar nutq ko‘rki hisoblanadi. O‘quvchilar qanchalik maqol va matallarni yaxshi o‘zlashtirsa ravon nutq egasi bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Артюнова Н. Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. - М.:Наука, 1988. - 341 с.